

## **ELEKTRON TIJORAT TIZIMLARINING BIZNES-TURIZMDAGI AHAMIYATI**

*Xurshid Tashpulatov*

*Toshkent viloyati turizm boshqarmasi boshlig'i*

*[hurshid.nurafshon@gmail.com](mailto:hurshid.nurafshon@gmail.com)*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratning o'rni va ahamiyati, uning rivojlanish bosqichlari, kelajakda rivojlanish imkoniyatlari to'g'risida fikr-mulohazalar keltirilgan. Hamda uning imkoniyatlarini baholash va shu orqali rivojlanish istiqbollari belgilash yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Raqamli iqtisodiyot, marketing, elektron tijorat, elektron bozor.*

***Annotation:** This article presents opinions on the role and importance of electronic commerce in the digital economy of our country, the stages of its development, and the possibilities of future development. Also, the evaluation of its capabilities and the determination of development prospects are highlighted.*

***Keywords:** Digital economy, marketing, e-commerce, e-market.*

Jahon hamjamiyatining ko'zlangan rivojlanish va farovonlikka erishish uchun, axborot texnologiyalariga bo'lgan ehtiyoji katta sur'atlar bilan oshib boryapti. Iqtisodiy o'sishning faollashuvi, dunyo aholisi yashash darajasining yaxshilanishi axborot texnologiyalarining kundalik hayotimizga singib ketgani natijasidir. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, erkin axborot oqimining ta'minlanishi bozor iqtisodiyotiga o'tishni tezlashtiradi va ijtimoiy farovonlikni oshiradi.

Elektron tijorat jamiyatni rivojlanirishidagi ahamiyati quyidagilarda nomoyon bo'ladi:

- Elektron tijoratning rivojlanishi O'zbekiston mehnat bozori strukturasiiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqori axborot texnologiyalarini sanoatlashtirish minglab yangi ish o'rinlarini yaratadi;

- O'zbekiston iqtisodiyotining barqarorlashishi, tovar va xizmatlarning raqobatbardoshligi kuchayishi va elektron tijorat rivojlanishining bir paytda sodir bo'lishi eksport imkoniyatlarimizning oshishiga olib keladi;

- Elektron tijorat aholi turmush darajasining yaxshilanishini, marketing, menejment kabi sohalarning rivojlanishini ta'minlaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda elektron tijoratga biznes yuritishning ajralmas bo'lagi sifatida qaralsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda uni muqobil biznes yuritish usuli deb qaraladi. Biroq hali ham elektron tijorat xalqaro miqyosda mamlakatlar iqtisodiyotida sezilarli o'rin egallamagan. Agar elektron tijoratning kichik va o'rta biznes vakillari jahon bozoriga chiqishlari uchun juda qulay vosita ekanini, xom-ashyo bozoriga kirishni osonlashtirishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari marketingini xalqaro ko'lamda olib borish imkoniyatini oshirishini inobatga olsa, bu ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlardagi tadbirkorlar uchun ancha foydali degan xulosaga kelinadi. Shunday bo'lsada, elektron tijoratni rivojlantirish talab va taklif darajasiga bog'liq va bunda sezilarli natijalarga erishish uchun, albatta, faoliyatni eksportni oshirishga yo'naltirish zarur.

Globalashuv jarayonlari chuqurlashayotgan va milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligi o'sayotgan pallada telekommunikatsiya sanoati iqtisodiyotning alohida olingan sohasi sifatida rivoj topishi hamda iqtisodiyotning boshqa sohalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanishiga doir masalalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Texnik imkoniyatlar kengayishi va mazkur sanoatning salohiyatini amaliyotda to'laqonli qo'llash milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi hamda shu tarzda xususiy va davlat tuzilmalarining strategik barqarorligini ta'minlaydi. Jahon bozorining zamonaviy rivojlanish yo'nalishlariga ko'ra, axborotkommunikatsiya texnologiyalari sohasida innovatsiyalarning kiritilishi va ularning samarali qo'llanishi korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlarning innovatsiyalarning kiritilishi va ularning samarali qo'llanishi korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlarning samaradorligini oshirishga zamin yaratib, iqtisodiyotning turli jabhalarida mavjud tovar va xizmatlar bozorlarini kengaytirib, yangi bozorlarni yaratish uchun sharoit yaratadi va shu orqali aholi turmush tarzi yaxshilanishiga sabab bo'ladi.

Elektron savdo tizimida savdo qilish mamlakatimizning turli hududlarida mahsulotlarni masofadan turib sotish imkonini yaratib beradi. Vaqtni tejashga, sarf-xarajatlarni keskin kamaytirishga yordam beradi. Bir soʻz bilan aytganda, elektron savdolar sohasida olib borilayotgan ishlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga qulayliklar yaratadi. Bu ularning samarali faoliyat yuritishiga, iqtisodiyotimizdagi oʻrni va ulushi yanada mustahkamlanishiga olib keladi.

Hozirgi kunda internet inson hayoti va ongiga mustahkam oʻrnashib oldi. Inson XXI asrga kelib, oʻz hayotini elektron pochta va ijtimoiy tarmoqlarni tekshirish, xalqaro miqyosda sodir boʻlayotgan turli xildagi yangiliklarni oʻqish kabi odatiy mashgʻulotlarsiz tasavvur eta olmaydi. Internet tarmogʻi dunyo mamlakatlari miqyosida elektron tijorat imkoniyatlari orqali keng tarqalgan boʻlib, xususan, Oʻzbekistonda ham elektron tijoratning yangi imkoniyatlari rivojlanib bormoqda. Biz eng avvalo elektron tijorat nima degan savolga javob berishimiz lozimdir. Elektron tijorat – kompyuter tarmoqlari yordamida amalga oshirilishi mumkin boʻlgan barcha turdagi moliyaviy va savdo tranzaksiyalarni hamda ushbu tranzaksiyalarni amalga oshirish bilan bogʻliq biznes jarayonlarni oʻziga olgan iqtisodiy tarmoqdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida elektron tijoratning jadal rivojlanishi yuqori iqtisodiy samaradorlikni taʼminlashga, innovatsion tadbirkorlik faoliyatining yanada taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Hozirgi kunda mamlakatimizda elektron tijorat tez surʼatlarda rivojlanib, tadbirkorlar va isteʼmolchilarga keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Oʻzbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish UZCARD tizimini aholiga tadbiiq etish orqali har qaysi vaqt va joyda mobil telefonlar yoki kompyuter vositalari orqali toʻlovlarni amalga oshirish joriy etilgan. Hozirda mamlakatimizda U-pay, Click, Payme, Uzum Bank, Zoomrad, Mbank kabilar orqali onlayn rejimda toʻlovlarni amalga oshirish muvoffaqiyatli faoliyat koʻrsatmoqda. Elektron tijorat orqali insonlar uylaridan chiqmasdan ham turli xildagi tovar va xizmatlarni sotib olish imkoniyatiga ega boʻlib bormoqdalar.

Hozirgi kunga kelib, quyidagilar elektron tijorat turlari hisoblanadi:- ikki tadbirkor oʻrtasidagi elektron tijorat;

- tadbirkor va isteʼmolchi oʻrtasidagi elektron tijorat;

- tadbirkor va davlat o'rtasidagi elektron tijorat;
- iste'molchi va davlat o'rtasidagi tijorat

Mamlakatimiz iqtisodiyoti va biznes sohasiga axborot texnologiyalari jadallik bilan kirib kelmoqda, elektron tijorat va elektron to'lovlarning zamonaviy tizimlari joriy qilinmoqda, internet tarmog'i milliy segmenti taraqqiy etmoqda.

O'zbekistondagi elektron biznes va tijoratning holati Elektron tijoratni rivojlantirish hukumat siyosatida ham katta ahamiyatga ega. Prezidentning 2018 yil 14-maydagi "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida" gi farmoniga muvofiq, elektron tijorat sohasida tadbirkorlik sub'ektlarini rag'batlantirish maqsadida elektron tijorat sub'ektlarining milliy reestri [tijorat.uz](http://tijorat.uz) yaratildi, hozirda 32 ta tashkilot ro'yxatdan o'tgan. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar Milliy reyestrda ixtiyoriy va bepul asosda kiritilgan bo'lib, elektron savdo orqali tovar va xizmatlarni sotishdan tushadigan daromad ular tomonidan sotilgan tovarlar va xizmatlar umumiy hajmining kamida 80 foizini tashkil etadi. Shu bilan birga, ular 2% stavka bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lashlari kerak. O'zbekistondagi asosiy universal elektron savdo maydonchasi - bu Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan yaratilgan Trade Uzbekistan savdo maydonchasi ([tradeuzbekistan.com](http://tradeuzbekistan.com) veb-sayti). Boshqa elektron savdo maydonchalari ham ishga tushirildi, masalan, B2B formatidagi to'qimachilik ishlab chiqaruvchilari uchun [uzbtextile.com](http://uzbtextile.com), kichik va o'rta biznes uchun [universal.uz](http://universal.uz) va boshqalar. Shu bilan birga, O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanish darajasi hali ham past darajada. Hozirda [e-tijorat.uz](http://e-tijorat.uz) elektron tijorat sub'ektlari milliy reestrda faqat 32 ta sub'ekt ro'yxatdan o'tgan. Shu bilan birga, elektron tijorat sohasida ishlaydigan 69 ta veb-sayt (2019-yil noyabr oyi holatiga ko'ra) [www.uz](http://www.uz) ma'lumot olish milliy tizimida mavjud. 2019 yilning ikkinchi choragida elektron tijorat operatsiyalari soni 75,39 millionni, bitimlar hajmi esa 3,515 trln. so'mni tashkil etdi. Birinchi chorakda ushbu ko'rsatkichlar 73,8 million va 2,516 trln. so'mni tashkil etdi

Xususan, 2013-yilda elektron savdolarida amalga oshirilgan davlat xaridlari hajmi 417 mlrd. so'mni tashkil etdi, savdolar yakunlari bo'yicha budjet

mablag'larining tejalishi esa 83 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Bunda davlat xaridlari doirasida yetkazilgan tovarlar va xizmatlarning 83 foizdan ortig'i kichik biznes sub'ektlari ulushiga to'g'ri keldi. 2016 yilga kelib, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan ba'zi tijorat banklari elektron tijorat sohasida o'z mahsulotlarini milliy bozorga olib chiqishdi. 2016-yilda elektron tijorat bo'yicha pul o'tkazmalarining umumiy summasi 998,192 milliard so'mni tashkil etdi, bu esa 2015-yilga nisbatan 130 foizga oshdi. Elektron tijorat tizimini takomillashtirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasi tomonidan "O'zbekiston Respublikasida 2016-2018 yillarda elektron tijoratni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qabul qilingan qarori mamlakatimizda moliyaviy xizmatlarning onlayn imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Buning natijasida internet-do'konlarining paydo bo'lishi, supermarketlarda iste'molchilar xaridlarni tezda amalga oshirish imkoniyati yuzaga keladi. Hozirgi kunda elektron tijoratni ijobiy jihatlari shundaki, iste'molchilar asosan to'lovlarni mobil aloqa, internet xizmati orqali amalga oshirishmoqda. Lekin ayrim holatlarda iste'molchi onlayn-xaridlarga ishonchsizlik bilan munabatda bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Shunday qilib, O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish imkoniyatlari yildan yilga o'sib borayotganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Uning rivojlanishi milliy ishlab chiqaruvchilarimizga yangi bozorlar ochish, yangi mijozlar topish imkoniyatlarini yaratadi. Elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha tanlangan va amaldagi yo'ldan to'g'ri borish, kelajakda O'zbekiston iqtisodiyotini jahon bozorining yetakchi vakillaridan biriga aylantiradi. O'zbekistonda elektron tijorat bo'yicha mavjud muammolarni hal qilishning to'g'ri yo'li tanlanganligi xalq farovonligida, jamiyatimizning taraqqiy topishida, iqtisodiy rivojlanishimizda o'z aksini topadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jacob Wibom Westerberg, Therése dalebrant, katja kotala. U.S. e-commerce market entry retail playbook. [https://static1.squarespace.com/static/5be156f4365f02418a904b89/t/601493aa5d2a3d4a2cb82b1d/161196126898/5/U.S.+re+tail+ecommerce+market+entry+report\\_FINAL+Jan+2021.pdf](https://static1.squarespace.com/static/5be156f4365f02418a904b89/t/601493aa5d2a3d4a2cb82b1d/161196126898/5/U.S.+re+tail+ecommerce+market+entry+report_FINAL+Jan+2021.pdf)

2. Rahimkhodjaevna, S. M. (2022). Perspective directions of establishment of innovation environment in telecommunication enterprises. *Conferencea*, 35-38.
3. Shaislamova, M. (2021). Organization of innovative activities in telecommunications enterprises. *Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT)*, 12(9), 1434-1440.
4. Shaislamova, M. R. (2017). Рынок труда и его основные понятия в условиях информационного общества. *Молодой ученый*, (7), 305-307.